TURLI TIZIMLI TILLARDA FUTURALLIKNING VERBALIZATSIYASI

Qozoqboyeva Dilfuzaxon Ilxomjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada futurallik konseptining inson tafakkuridagi o‘rni, uning til vositalari orqali ifodalanish mexanizmlari hamda ingliz va o‘zbek tillaridagi milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida futurallikni ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarning semantik-pragmatik imkoniyatlari aniqlanib, ularning konseptual mazmunni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, chog‘ishtirilayotgan tillarda futurallik konseptining verbalizatsiyasida kuzatiladigan umumiy va farqli jihatlar lingvokognitiv hamda lingvokulturologik omillar nuqtayi nazaridan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari futurallik konseptining milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar va til tizimi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni namoyon etishini ko‘rsatadi hamda qiyosiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalaridagi ilmiy izlanishlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: futurallik, konsept, verbalizatsiya, lingvokognitiv yondashuv, lingvokulturologik yondashuv, zamon kategoriyasi, leksik-grammatik maydon, konseptualizatsiya, ingliz tili, o‘zbek tili, qiyosiy tilshunoslik, semantika.

Kirish. XXI asr tilshunosligi tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va dunyoni idrok etish mexanizmlarining muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida konsept tushunchasi markaziy kategoriyalardan biri sifatida e’tirof etilib, inson ongida shakllanuvchi bilimlar tizimining til birliklari orqali ifodalanish jarayonlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammolardan biriga aylangan [1]. Til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishda zamon kategoriyasi hamda uning tarkibiy qismi hisoblangan futurallik konsepti alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, inson tafakkuri o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak haqidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Ushbu uch temporal o‘lchov ichida kelajak konsepti insonning rejalashtirish, bashorat qilish, maqsad qo‘yish va istiqbolni baholash kabi intellektual faoliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli futurallik konsepti nafaqat grammatik zamon kategoriyasining tarkibiy elementi, balki insonning konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab kognitiv hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi [2].

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda konseptlar inson tajribasi, madaniy qadriyatlari va milliy tafakkurining til orqali namoyon bo‘lish shakli sifatida talqin qilinadi. Jumladan, G. Lakoff, R. Langacker, Ch. Fillmore, E. Kubryakova, V.A. Maslova, Yu.S. Stepanov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida konseptual tizim va uning lingvistik reprezentatsiyasi masalalari keng yoritilgan [3]. Ularning fikricha, til birliklari inson ongida shakllangan konseptual bilimlarning verbal ifodasi hisoblanadi. Mazkur yondashuv futurallik konseptining turli tillarda qanday verbalizatsiya qilinishini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi kunda ingliz va o‘zbek tillarida futurallikni ifodalovchi vositalar yuzasidan ayrim ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, ushbu konseptning lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatdan qiyosiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, futurallik konseptining leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali verbalizatsiyasi hamda bu jarayonda milliy-madaniy omillarning ta’sirini aniqlash masalasi o‘z yechimini kutayotgan ilmiy muammolardan biri hisoblanadi [4].

Ingliz tili analitik til sifatida futurallikni ifodalashda yordamchi fe’llar, modal konstruktsiyalar va turli sintaktik modellardan keng foydalanishi bilan xarakterlansa, o‘zbek tili agglutinativ til sifatida kelajak ma’nosini asosan morfologik shakllar hamda kontekstual vositalar orqali ifodalaydi. Mazkur tipologik tafovutlar futurallik konseptining verbalizatsiyasida

ham o‘z aksini topadi. Shu bilan birga, har ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, madaniy qadriyatlari, diniy-falsafiy qarashlari va milliy mentaliteti kelajak haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi [5].

Lingvokulturologik nuqtayi nazardan qaralganda, futurallik konsepti til egalarining kelajakka bo‘lgan munosabati, umid va kutishlari, ehtimollik va ishonch darajasi, shuningdek, taqdir va iroda haqidagi qarashlarini ham aks ettiradi. Ingliz tilida futurallik ko‘proq rejalashtirish, individuallik va pragmatik tafakkur bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida kelajak tushunchasi ko‘pincha an’anaviy qadriyatlar, jamoaviy tafakkur hamda taqdir konsepti bilan uzviy aloqada ifodalanadi [6]. Natijada bir xil konsept turli lingvomadaniy muhitlarda o‘ziga xos semantik va pragmatik xususiyatlarni kasb etadi.

Shuningdek, futurallik konsepti zamon kategoriyasining tarkibiy qismi bo‘lishiga qaramay, uning mazmuni faqat grammatik kelasi zamon shakllari bilan chegaralanmaydi. U istiqbol, prognoz, niyat, maqsad, reja, bashorat, orzu va kutish kabi bir qator konseptual mazmunlarni ham o‘z ichiga oladi [7]. Shu jihatdan futurallikning verbalizatsiyasi murakkab ko‘p qatlamli lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiyasi lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida futurallikni ifodalovchi leksik, morfologik hamda sintaktik vositalarning konseptual mohiyati ochib beriladi, ularning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi hamda futurallik konseptining ikki til vakillari lisoniy ongida qanday shakllanishi va verbal ifodalanishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Adabiyotlar tahlili. Futurallik konsepti, zamon kategoriyasi hamda ularning til tizimidagi ifodalanish xususiyatlari tilshunoslikning turli yo‘nalishlari doirasida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, struktur tilshunoslik, funksional grammatika, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya yo‘nalishlarida zamon va futurallik masalalariga oid nazariy qarashlar shakllangan.

Zamon kategoriyasining nazariy asoslari dastlab klassik grammatika doirasida o‘rganilgan bo‘lib, uning grammatik mohiyati va funksional vazifalari O. Jespersen, H. Reichenbach, B. Comrie kabi olimlarning ilmiy ishlarida batafsil yoritilgan [8]. Xususan, B. Comrie zamon kategoriyasini nutq momentiga nisbatan voqea-hodisalarning temporal joylashuvini ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida tavsiflaydi hamda futurallikning ko‘plab tillarda grammatik va semantik vositalar uyg‘unligi orqali ifodalanishini ta’kidlaydi [9]. Olimning fikricha, kelajak ma’nosi ko‘pincha ehtimollik, niyat va rejalashtirish kabi modal komponentlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Futurallikning semantik xususiyatlarini o‘rganishda H. Reichenbachning temporal munosabatlar nazariyasi alohida ahamiyatga ega [10]. U zamon shakllarini nutq momenti, hodisa momenti va referens nuqtasi o‘rtasidagi munosabatlar asosida tahlil qilib, kelasi zamon mazmunining murakkab semantik tabiatini ochib beradi. Mazkur yondashuv keyinchalik kognitiv va funksional tilshunoslikdagi tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Kognitiv tilshunoslikda esa futurallik masalasi inson tafakkurining konseptual tizimi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. G. Lakoff konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqib, insonning vaqt haqidagi tasavvurlari metaforik modellar asosida shakllanishini asoslab bergan [3]. Olimning fikricha, kelajak ko‘pincha makoniy harakat, yo‘l, manzil va oldinga intilish kabi konseptual metaforalar vositasida idrok etiladi. Ushbu nazariya futurallik konseptining kognitiv mohiyatini tushunishda muhim nazariy manba hisoblanadi.

R. Langacker tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv grammatika nazariyasida esa zamon shakllari insonning konseptualizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [2]. Olim til birliklarini obyektiv voqelikning bevosita aks ettiruvchisi emas, balki inson ongida shakllangan konseptual strukturalarning verbal ifodasi sifatida baholaydi. Mazkur qarash futurallik

konseptining verbalizatsiya mexanizmlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Rus tilshunosligida E.S. Kubryakova konsept va konseptual tizim masalalarini chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri hisoblanadi [4]. Uning fikricha, konsept inson tafakkurida jamlangan bilimlarning asosiy birligi bo‘lib, til ushbu bilimlarni saqlash va uzatish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Olimning mazkur qarashlari futurallik konseptining lingvokognitiv xususiyatlarini tadqiq etishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda V.A. Maslova va Yu.S. Stepanov konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratganlar [5; 6]. Ularning ilmiy ishlarida konseptlar xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi mental tuzilmalar sifatida tavsiflanadi. Mazkur yondashuv futurallik konseptining turli xalqlar lisoniy ongida shakllanishidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O‘zbek tilshunosligida konsept va kognitiv tilshunoslik masalalari Sh. Safarov, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, M. Yo‘ldoshev kabi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan [1]. Xususan, Sh. Safarov konseptlarni inson tafakkuri va til o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida baholab, ularning til birliklari orqali namoyon bo‘lish mexanizmlarini izohlaydi [1]. D. Xudoyberganova esa o‘zbek tilidagi konseptlarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilib, lingvokulturologik tadqiqotlarning nazariy asoslarini rivojlantirgan.

Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillarida futurallikni ifodalovchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati grammatik yoki semantik tavsif bilan cheklanadi. Mavjud ilmiy ishlarda futurallik konseptining lingvokognitiv va lingvokulturologik jihatlari kompleks qiyosiy yondashuv asosida yetarli darajada o‘rganilmagan. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiyasi jarayonida konseptual va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri, shuningdek, kelajak haqidagi tasavvurlarning milliy lisoniy manzaradagi aks etishi masalalari chuqur tadqiq etilmagan.

Shu sababli mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiyasini lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiya jarayonini lingvokognitiv hamda lingvokulturologik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy kognitiv tilshunoslik, konseptologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishlarida shakllangan nazariy qarashlar tashkil etadi [1; 3; 4].

Tadqiqot davomida konsept tushunchasi inson ongida voqelik haqidagi bilimlar, tajribalar va madaniy tasavvurlarni mujassamlashtiruvchi murakkab mental birlik sifatida talqin qilindi. Shu nuqtayi nazardan futurallik konsepti nafaqat grammatik zamon kategoriyasining tarkibiy qismi, balki kelajak haqidagi tasavvurlar, rejalashtirish, bashorat qilish, maqsad qo‘yish va istiqbolni baholash kabi kognitiv jarayonlarning lingvistik ifodasi sifatida o‘rganildi [2].

Tadqiqotning empirik materiallarini ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy asarlar, publitsistik matnlar, ommaviy axborot vositalari materiallari hamda zamonaviy elektron korpuslardan tanlab olingan futurallik ma’nosini ifodalovchi til birliklari tashkil etdi. Tahlil jarayonida ingliz tilidagi futurallikni ifodalovchi will, shall, be going to, be about to kabi grammatik konstruktsiyalar hamda futurallik semasini o‘zida mujassamlashtiruvchi leksik birliklar o‘rganildi. O‘zbek tilida esa kelasi zamon shakllari, modal birliklar, istiqbol ma’nosini ifodalovchi leksik vositalar va sintaktik konstruktsiyalar tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Birinchidan, qiyosiy-tipologik metod yordamida ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiya vositalari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlandi. Mazkur metod ikki tilning struktur va semantik xususiyatlarini o‘zaro solishtirish imkonini berdi [8].

Ikkinchidan, lingvokognitiv tahlil metodi asosida futurallik konseptining inson tafakkuridagi konseptual tuzilishi hamda uning til birliklari orqali namoyon bo‘lish mexanizmlari o‘rganildi. Ushbu metod konseptning yadroviy va periferik komponentlarini aniqlash hamda ularning semantik tarkibini tavsiflash imkonini berdi [4].

Uchinchidan, lingvokulturologik tahlil metodi yordamida futurallik konseptining ingliz va o‘zbek xalqlarining madaniy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va milliy mentaliteti bilan bog‘liq jihatlari tadqiq qilindi. Bunda futurallikni ifodalovchi birliklarning madaniy konnotatsiyalari va pragmatik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratildi [5].

To‘rtinchidan, semantik-komponent tahlil metodi asosida futurallik ma’nosini ifodalovchi leksik va grammatik birliklarning semantik tarkibi o‘rganildi. Mazkur metod orqali kelajak, istiqbol, reja, niyat, bashorat, ehtimollik va kutish kabi semantik komponentlarning o‘zaro munosabatlari aniqlandi [9].

Beshinchidan, kontekstual tahlil metodi yordamida futurallik ma’nosining nutq jarayonida voqelanish xususiyatlari va pragmatik funksiyalari o‘rganildi. Bu esa futurallik konseptining faqat grammatik shakllar orqali emas, balki kommunikativ vaziyat va diskurs omillari orqali ham shakllanishini ko‘rsatishga imkon berdi [10].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konsepti ilk bor lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar integratsiyasi asosida kompleks qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, futurallik konseptining verbalizatsiyasida ishtirok etuvchi leksik, morfologik va sintaktik vositalarning konseptual hamda madaniy xususiyatlari yagona metodologik tizim doirasida tadqiq etiladi.

Natijalar va muhokama. Ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining leksik verbalizatsiyasi

Futurallik konseptining til tizimida namoyon bo‘lishi faqat grammatik vositalar bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu konseptning verbalizatsiyasida leksik birliklar ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki insonning kelajak haqidagi tasavvurlari, rejalari, maqsadlari va istiqbolga oid qarashlari, avvalo, muayyan leksik vositalar orqali ifodalanadi. Shu jihatdan futurallik konsepti ingliz va o‘zbek tillarining leksik tizimida o‘ziga xos semantik maydon hosil qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tilda futurallik konseptining yadroviy komponentini kelajak ma’nosini bevosita ifodalovchi birliklar tashkil etadi. Ingliz tilida future, tomorrow, forthcoming, upcoming, prospective, eventually, later kabi leksik birliklar futurallik konseptining asosiy verbalizatorlari sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur birliklar semantikasida vaqtning nutq momentidan keyingi davrga yo‘naltirilganligi asosiy sema hisoblanadi. Masalan, future leksemasi ingliz tilida nafaqat kelajak vaqtni, balki istiqbol, imkoniyat va rivojlanish g‘oyalarini ham o‘zida mujassamlashtiradi.

O‘zbek tilida esa futurallik konsepti kelajak, ertaga, istiqbol, bo‘lajak, keyinchalik, oldinda, yaqin kunlarda kabi leksik birliklar orqali verbalizatsiya qilinadi. Ushbu birliklarning semantik tuzilishida ham kelajak vaqtga yo‘naltirilganlik asosiy o‘rinni egallaydi. Biroq o‘zbek tilidagi ayrim leksemalarda kelajak tushunchasi milliy madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Xususan, istiqbol leksemasi oddiy vaqt ko‘rsatkichidan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib, rivojlanish, taraqqiyot va muvaffaqiyat kabilarni ham anglatadi.

Qiyosiy tahlillar natijasida ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining leksik verbalizatsiyasida umumiy semantik asos mavjudligi aniqlandi. Har ikki tilda kelajak ma’nosini ifodalovchi birliklar vaqtning istiqbolga qaratilganligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu birliklarning konseptual mazmuni va pragmatik qo‘llanishida sezilarli tafovutlar kuzatiladi.

Ingliz tilida futurallikni ifodalovchi leksik birliklar ko‘proq ratsional rejalashtirish va individual maqsadlarga yo‘naltirilgan semantikani aks ettiradi. Masalan, future plans, future career, future development kabi birikmalarda kelajak inson tomonidan boshqarilishi va oldindan

rejalashtirilishi mumkin bo‘lgan hodisa sifatida talqin qilinadi. Bu holat ingliz tili egalari tafakkurida pragmatiklik va individualizmning ustuvorligini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida esa futurallikni ifodalovchi leksik birliklar ko‘pincha umid, niyat, orzu va taqdir tushunchalari bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Masalan, kelajak avlod, porloq kelajak, nasib etsa, istiqbolda kabi birliklarda kelajak nafaqat rejalashtiriladigan hodisa, balki insonning ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy ideallari bilan bog‘liq konsept sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada futurallik konsepti o‘zbek tilining lisoniy manzarasida madaniy va aksiologik komponentlar bilan boyitiladi.

Tadqiqot davomida futurallik konseptining leksik verbalizatsiyasi yadroviy va periferik qatlamlardan tashkil topishi ham aniqlandi. Yadroviy qatlamga bevosita kelajak ma’nosini ifodalovchi birliklar kirsa, periferik qatlamni istiqbol, orzu, umid, bashorat, taraqqiyot va muvaffaqiyat kabi semantik jihatdan futurallik bilan bog‘liq birliklar tashkil etadi. Ushbu holat futurallik konseptining murakkab konseptual tuzilishga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida futurallikning grammatik ifodasi ko‘proq modallik kategoriyasi bilan integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida esa futurallikning grammatik ifodalanishi zamon kategoriyasi doirasida nisbatan mustaqil shakllangan. Natijada ingliz tilida kelajak ma’nosi ko‘pincha ehtimollik va subyektiv baholash elementlari bilan birga ifodalansa, o‘zbek tilida voqeaning kelajakda sodir bo‘lishi grammatik jihatdan aniqroq ko‘rsatiladi.

Lingvokognitiv nuqtayi nazardan qaralganda, mazkur holat ingliz tili egalari tafakkurida kelajakning ehtimoliy va o‘zgaruvchan hodisa sifatida idrok etilishini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa kelajak ko‘proq rejalashtirilgan yoki kutilayotgan voqelik sifatida konseptualizatsiya qilinadi. Buning natijasida futurallik konseptining grammatik verbalizatsiyasi ikki xalqning temporal dunyoqarashidagi ayrim farqlarni ham aks ettiradi.

Shuningdek, tadqiqot davomida futurallikni ifodalovchi grammatik vositalarning semantik yuklamasi turlicha ekanligi aniqlandi. Ingliz tilidagi will konstruktsiyasi bashorat, va’da, qaror va taxmin ma’nolarini ifodalashi mumkin bo‘lsa, o‘zbek tilidagi -moqchi shakli asosan niyat va rejalashtirish semalarini namoyon etadi. Demak, grammatik shakllarning konseptual mazmuni ularning formal tuzilishidan ko‘ra kengroq semantik maydonga ega.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiyasi lingvokognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, futurallik konsepti insonning temporal dunyoqarashini aks ettiruvchi universal kognitiv kategoriya hisoblanadi. U har ikki tilda kelajak bilan bog‘liq bilimlar, tasavvurlar, rejalashtirish, bashorat qilish va istiqbolni baholash jarayonlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab konseptual tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi [1; 3].

Ikkinchidan, ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining verbalizatsiyasi leksik, morfologik va sintaktik vositalar orqali amalga oshirilishi aniqlandi. Har ikkala tilda futurallik konseptining yadroviy mazmuni kelajak vaqt semasiga asoslangan bo‘lsa-da, uning ifodalanish shakllari va semantik tarkibida muayyan tipologik tafovutlar mavjud.

Uchinchidan, futurallik konseptining leksik verbalizatsiyasi natijasida ingliz tilida future, tomorrow, upcoming, prospective kabi birliklar, o‘zbek tilida esa kelajak, ertaga, istiqbol, bo‘lajak kabi leksemalar futurallik maydonining asosiy verbalizatorlari sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Shu bilan birga, ushbu birliklarning semantik mazmunida milliy-madaniy tafovutlar mavjudligi kuzatildi.

To‘rtinchidan, futurallik konseptining morfologik verbalizatsiyasida ingliz tilining analitik, o‘zbek tilining esa sintetik xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Ingliz tilida will, shall, be going to, be about to kabi analitik konstruktsiyalar futurallikni ifodalashda ustunlik qilsa, o‘zbek tilida -adi, -ar, -ajak, -moqchi shakllari asosiy grammatik vositalar sifatida faol qo‘llanadi. Bu holat har ikki tilning tipologik xususiyatlari bilan izohlanadi.

Beshinchidan, lingvokulturologik tahlil natijalari futurallik konseptining verbalizatsiyasida milliy dunyoqarash va madaniy qadriyatlarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Ingliz tilida futurallik konsepti ko‘proq individuallik, pragmatizm, rejalashtirish va shaxsiy muvaffaqiyat g‘oyalari bilan bog‘liq holda shakllansa, o‘zbek tilida u jamoaviylik, ma’naviy qadriyatlar, umid, nasiba va istiqbol tushunchalari bilan uzviy aloqador holda namoyon bo‘ladi.

Oltinchidan, tadqiqot davomida futurallik konseptining verbalizatsiyasi faqat grammatik zamon kategoriyasi doirasida cheklanib qolmasligi, balki konseptual, pragmatik va madaniy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi ko‘p qatlamli lingvistik hodisa ekanligi asoslandi. Bu esa futurallikni zamon kategoriyasining tarkibiy elementi sifatida emas, balki mustaqil lingvokognitiv konsept sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Yettinchidan, ingliz va o‘zbek tillarida futurallik konseptining qiyosiy tadqiqi til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini berdi. Olingan natijalar kognitiv tilshunoslik, konseptologiya, lingvokulturologiya va qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, futurallik konsepti ingliz va o‘zbek tillarining lisoniy manzarasida umumiy kognitiv asosga ega bo‘lishiga qaramay, uning verbalizatsiyasi har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va tarixiy tajribasi ta’sirida o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Mazkur holat futurallik konseptining universal va milliy jihatlari o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Sangzor, 2006. – 220 b.
2. Langacker R.W. Cognitive Grammar: A Basic Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 562 p.
3. Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things: What Categories Reveal About the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.
4. Kubryakova E.S. Yazyk i znaniye: Na puti polucheniya znaniy o yazyke. – Moskva: Yazyki slavyanskoy kultury, 2004. – 560 s.
5. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 208 s.
6. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. – Moskva: Akademicheskiy proyekt, 2004. – 992 s.
7. Fillmore Ch. Frame Semantics and the Nature of Language. – Annals of the New York Academy of Sciences. – 1976. – Vol. 280. – P. 20–32.
8. Jespersen O. The Philosophy of Grammar. – London: Allen & Unwin, 1924. – 359 p.
9. Comrie B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985. – 139 p.
10. Reichenbach H. Elements of Symbolic Logic. – New York: Macmillan, 1947. – 444 p.
11. Wierzbicka A. Semantics, Culture and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. – New York: Oxford University Press, 1992. – 487 p.
12. Evans V., Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006. – 830 p.
13. Taylor J.R. Linguistic Categorization. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 328 p.
14. Croft W., Cruse D.A. Cognitive Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 356 p.
15. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 256 b.
16. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b.
17. Jackendoff R. Foundations of Language. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 477 p.
18. Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 464 p.
19. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics. – Cambridge: MIT Press, 2000. – 565 p.